



## YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASH – DOLZARB VAZIFA

**Ikromov Xabibullo Boqiyevich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik  
litsey o'qituvchisi istefodagi podpolkovnik

**Toshpo'latov Adxamjon Abdulboqiyevich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litsey  
Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi  
istefodagi kapitan

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda ta'lim tizimi ming yillar davomida shakllangan sharqona usullardan foydalanib kelmoqda. Sharq, xususan, o'zbek ta'lim tizimida yoshlar tarbiyasi, axloqi, vatanparvarligi, mehnatsevarligi, ijodkorligi va insonparvarligi kabi sifatlarga qadimdan alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini shakllanishi va faoliyat ko'rsatishini asosiy tamoyili tarzida «o'quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga layoqatli bulish ruxida tarbiyalash» alohida ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, vatanparvar, ta'lim tizimi, O'zbekiston, xarbiy, Vatan, zamon, Voleybol, Merganlik, ma'naviy-ma'rifiy, tadbirlar.

XX asrning so'nggi va XXI asrning yigirma yilida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli millatning asriy orzusi demokratiya, ozodlik, erkinlik, farovon va osoyishta turmush tarzini chuqur anglash fursati yetdi. Xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, o'z taqdirini o'zi belgilab, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shuningdek, taraqqiyparvar davlatlar tajribasini ijodiy o'rganib yuksak intilishlar bilan yashay boshladi.



Bularning barchasi ta'limning maqsadini ham o'zgartirdi — endi bosh maqsad bolalarni ezgu qadriyatlar asosida bilimli, yuqori salohiyatli, vatani va xalqiga sodiq, jismonan sog'lom, teran va mustaqil fikrlovchi shaxs etib tarbiyalashdir.

Sunggi yillarda bu borada qator qarorlar qabul qilindi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ekanligi belgilab qo'yildi. Kengashning hududiy bo'limlariga mas'ullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu o'zgarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi.

Davlat rahbari 2021 yilning 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda, "Agar jamiyat xayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va roli ma'naviyatdir, ... Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustaxkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatidir",- dedi.

Shuning uchun ham bugungi O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat kursatishining asosiy tamoyili tarzida «o'quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mexnatga vijdonan munosabatda bulish ruxida tarbiyalash» alohida ta'kidlangan.

Mazkur tamoyil asosida milliy ta'lim tizimi va pedagogik-metodik sohalarda jadal o'zgarishlar, shiddatli yangilanishlar yuz berdi. Mavjud darslik, qo'llanma va dasturlar zamon talablariga moslashtirilib, bosqichma-bosqich iste'molga chiqarilmoqda. O'quvchilardan itoatkorlik, o'qituvchining har bir gapini yodlab olish talab etilmay qo'yildi.

Endi har bir maktabning o'quvchisi o'zining shaxsiy fikri va uni himoya qilish xuquqiga egaligini, o'qituvchi diktator emas, ilmga yul ko'rsatuvchi yullovchi (etaklovchi)



ekanini biladi. Berilgan imtiyoz va huquqlar suiste'mol qilinmasligi uchun o'qituvchilar chuqur bilim va yetakchilik xususiyatlari bilan qurollanishlari lozim.

Nazariy adabiyotlarni o'rganish, taxlil qilish, tushunchalarga ta'rif berish, kuzatish va suxbat, qiyosiy taxlil orqali dalillash kabi shaxsning mantiqiy tafakkur, mustaqil fikr ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Inson aqliy va jismoniy jixatdan qanchalik yetuk bo'lsa ham, undagi bilim ahlok normalariga mos bo'lmasa, u kishi jamiyatning xaqiqiy a'zosi bo'la olmaydi. Axloqiy me'yorlar esa adabiyot vositasida vujudga keladi. Bunga badiiy adabiyotdagi obrazli tafakkur tarzi imkon beradi.

Shu soxalarda mamlakatimiz taraqqiyotning yuksak ma'rifiy-madaniy jamiyat sari yetaklovchi, kelajagi buyuk davlatni bunyod qilish yulini tanlagani bois ta'lim tizimiga e'tibor va talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zotan, ajdodlar tanlagan yulni milliy g'ururga ega, barkamol, vatanparvar avlodlargina davom ettira olishadi.

Har kanday ta'lim va tarbiyani «Tarbiya nimadan boshlanadi?» so'rog'i bilan boshlagan ma'qul. Bunda o'qituvchi shaxsi, imkoniyatlari, uning o'quvchilarga va o'quvchilarning o'qituvchilarga munosabatlari kabi jiddiy masalalarga javob izlanadi. Chunki bolalar muxabbatiga ega bo'lmagan va tabiatan ixtisoslashmagan o'qituvchining baqirib-chaqirishi bolalarni «noqulay holatga soladi», tarbiya aynan o'quv faoliyati bilan bog'langan. O'qitish jarayoniga texnologik befarq yondashilsa, o'qituvchi layoqatsiz bo'lsa yoki tarbiyalash maqsadida o'z imkoniyatlarini vaqtida, o'rinli ishga solmasa, bola, extimol, fanni o'ziga kerakli jixatiga ko'ra qisman o'zlashtirishi mumkindir, biroq bu xolat mamlakat milliy xavfsizligiga taxdid soladi.

Yoshlarni harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalash o'sib kelayotgan yosh avlodning millati, tili, kasbiy va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar Vatanga bo'lgan sadoqatini shakllantirish, fuqarolik burchlarini va konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishga, jamiyat



va davlatimizni manfaatlarini ximoya kilishga kodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoa birlashmalari va tashkilotlarning ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va moslashtirilgan harakatiga aytiladi.

Yoshlarni xarbiy vatanparlik ruhida tarbiyalashda ta‘lim muassasasining faoliyatiga asoslangan rol o‘ynaydi. Sababi yoshning asosiy vaqtida ta‘lim muassasasida ta‘lim -tarbiya olishga qaratilgan bo‘lib, maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-xunar o‘quv va oliy ta‘lim muassasalarida beriladi.

Yoshlarni xarbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha mamlakatimizda bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sababi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlatning barqaror yuksalishidan biridir.

Hozirgi vaziyat globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan tezlik bilan rivojlanib borilayotgan sharoitlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘lik do‘stlik vazifalari va ularni hal qilish yo‘llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta‘lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va o‘zaro hamkorligini milliy va halqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-y 23-yilgi 140-son qarorida "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"ning 2-bobida, "Yoshlarni xarbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli ta‘lim muassasalari, ayni paytda, harbiy soha aloqalari bilan bog‘liq davlat xizmatlari faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitlarda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi uchun yuksak va mardonavor ishlarni shakllanishdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta‘lim muassasasalarining o‘rni nixoyatda katta bo‘lib, ta‘lim muassasasida ta‘lim berish bilan birga tarbiyaviy ishlar



birgalikda amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasasalari talabalarining harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasasida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar, harbiy xizmatchilar bilan hamkorlikda tashkil qilinadigan tadbirlar orqali olib boriladi.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatan tarbiyalash ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari xisoblanadi:

-yoshlarni milliy g'oya va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongiga vatan ximoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

-qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qaxramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosabat bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

-milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini xaqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

-yoshlarda yon atrofimiz va jaxonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi taxdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

-har qanday vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy xarbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash;

-O'zbekiston manfaatlarini nafaqat xarbiy sohada, balki xayotning barcha jabhalarida ximoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini xayotiy ishlar va tasirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirish.



"Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"da belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi talaba harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha quyidagilarni taklif etiladi:

-Mamlakatimizda Qurolli Kuchlar sohasida amaldagi amaliyotga oshkoralik islohotlarining mazmun-mohiyatini targ'ib qilish va talabalar orasida harbiylik kasbga hurmat va e'tiborni yanada kuchaytirish maqsadlarida "ma'naviyat soatlari"da O'zbekistonning Qurolli Kuchlariga oid, xarbiy kasb va harbiylar hayotiga tegishli mavzularda mashg'ulotlar o'tkazib borish;

-"Vatan ximoyachilari kuni" munosabati bilan hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan harbiy xizmatchilar hamda urush qatnashchilarini yoshlar bilan rejali uchrashuvlar, davr suhbatlari, turli vektorinalar tashkil qilish, kontrakt asosida harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar va talaba yoshlar o'rtalarida xarbiy sport musobaqalarini tashkil etish, harbiy sohaga oid mavzularda insholar tanlovi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;

- "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan ikkinchi jaxon urushi va front orti mehnat faxriylari, xizmat burchini bajarish chog'ida xalok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni himoya qilish organlari xodimlari ko'rsatgan matonatlarini talaba yoshlari orasida tashviqot qilish bo'yicha madaniy-ma'rifiy va vatanparvarlik yo'nalishida tadbirlar o'tkazilishini tashkil qilish;

-O'zbekiston Respublikasida nishonlanadigan bayramlar arafasida ikkinchi jaxon urushi va front orti mehnat faxriylari, xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning holidan xabar olish maqsadida ularning yashash joylariga raxbarlar ishtirokida yoshlar tashrifini tashkil etish;

-ta'lim muassasalarida harbiy sport, jismoniy tarbiya va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha to'garaklarni tashkil etish, jumladan "Qo'l jangi", "Yozgi biatlon", "Merganlik",



“Voleybol”, “Futbol” va shu kabi sport turlaridan to‘garaklar ochish va talaba yoshlarni bu to‘garaklarga jalb etish hamda qatnashini ta‘minlash;

-ta‘lim muassasasiga yaqin bo‘lgan O‘zbekiston Mudofaa harbiy qismlari bilan hamkorlik aloqalarini tashkil etish, vatanparvarlik tarbiyasiga tegishli hamkorlik rejasini ishlab chiqish va amalda qo‘llash;

-ta‘lim muassasasida o‘tkaziladigan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda Qurolli Kuchlarning harbiy xizmatchilari ishtirokini ta‘minlash va harbiy xizmatchilar bilan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha tajriba almashish.

Mamlakatdagi ta‘lim maskanlari muvaffaqiyat va farovonlik timsoli bulish barobarida kelajak vorislarini yaxshi amallar sari yetaklaydi. Taniqli siyosatchi Fransua Mitteran ta‘lim maskanini «jamiyatni harakatlantiruvchi kuch» deb xisoblagan.

Binobarin, mustaqil jamiyatimizni xarakatga keltiradigan, biz ko‘zlagan manzilga eltadigan ta‘lim maskanlari ijtimoiy xayotdagi eng kichik o‘zgarishni ham sezadi va unga munosabat bildiradi. Ijtimoiy tafakkur yangilangani ta‘lim tizimini o‘zgartiradi, bu esa o‘z navbatida, yana ijtimoiy tafakkurga ta‘sirini o‘tkazadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari. - Toshkent. "Yangi O‘zbekiston" 2021 yil 19 yanvar.
2. K.Yuldoshev Yangi o‘zbek adabiyoti: ildizlar, belgilar, bosqichlar. - T.: Shark yulduzi, 2007. 1-son. - B. 132-138.
3. Kosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik. - Toshkent: "Ma‘naviyat", 2002. - B. 252-253.



4. Yuldasheva Nilufar Abdullayevna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, A.Kodiriy nomidagi ijod maktabi direktori.
5. Musurmanov, P., & Shermatov, M. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar. Ko'p tarmoqli tengdoshlar tomonidan ko'rib chiqilgan jurnal, 1 (1), 557-560
6. Zokirov, U. M. (2020). Erkin kurashchilarning umumiy va mahcuc jismoniy tayyorgarliklarini takomillashtirish ucullari. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 1 (2), 306-314